

RAUF PARFI SONETLARINING SHAKLIY MANBALARI

Maqola muallifi: Ruxsora Imomova Axmedovna
Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti o`zbek
tili va adabiyoti kafedrası tayanch doktoranti
ruxsor29@mail.ru

Annotatsiya:

Sonet janri tamoman yangi shakl bo`lib, Yevropa adabiyotidan o`rnak olgan holda yaratilgan. Keyinchalik rus adabiyotida o`zini namoyon etgan. Turkiy xalqlar adabiyotida ham ko`pgina tarjima asarlar bevosita rus adabiyoti bilan aloqador holda bunyodga kelgan. Italiyada vujudga kelgan Petrarka yo`nalishi boshqa adabiyotlar uchun qolip vazifasini o`tadi. Angliya adabiyotida Shekspir izidan borib yozilgan sonet shakli ham Turkiy adabiyotlarda o`z ta'sirini ko`rsatdi. Bu ikkala yo`nalish o`zbek adabiyotida keyinchalik ham hukmronligini saqlab qoldi. Barot Boyqobilovdan toki Rauf Parfigacha bo`lgan shoirlar sonetning o`zlari istagan turlarini yaratishdi. Maqolada Petrarka, Shekspir, Spenser, Rauf Parfi kabi shoirlar ijodidagi sonet janri shakllari tadqiq qilinadi.

Kalit so`zlar: Sonet, Petrarka yo`nalishi, Shekspir yo`nalishi, Spenser yo`nalishi, Oktava, Sestet, Katren, Terset, Banddan tashqari qofiya, janrlar transformasi.

Sonet asrlar davomida shoirlarni shakl va vazn jihatdan majburlab kelgan she'riy shakldir. Bu shaklning maxsus qoidalarga ega bir janr sifatida bunyodga kelishi sabablarini ustoz Abdulla She'r Yevropa adabiyotining Sharq mumtoz adabiyoti gultoji bo`lgan g`azal janriga taqlid qilishi tufayli, deb belgilaydi¹. Janrning xususiyatlarini har bir shoir keying davrlarda o`zi bilgancha kashf qilib, tuyg`ularini qolipga solaverdi. O`sha qolip biz bilgan o`n to`rt qatordan iborat, tuzilishi katren va tersetlardan tashkil topadi, qofiyalanishi: katrenlar –a-b-a-b yoki a-b-b-a; tersetlar – c-d-c, d-c-d yoki c-d-e , c-d-e tarzida. Sonetga xos bo`lgan qofiya, vazn, ritm, hajm kabi xususiyatlardan qaysilari o`zbek adabiyotida ko`proq saqlanib qoldi? Xususan, sonet janrida ko`lamdor qalam tebratgan ijodkor Rauf Parfi sonetlarida shakl qanday ahamiyat kasb etadi va kompozitsion qurilish jihatdan ne chog`lik farqlar mavjud?

¹ Abdulla Sher. Sonet sirlari.//”O`zbekiston adabiyoti va san`ati” gazetasi. 2009-yil, 43-son



Bu savollarga sonetning Italiya Uyg`onish davrida paydo bo`lgan na`munalari va bugungacha bo`lgan taraqqiyotini tadqiq qilsakgina javob topamiz.

Sonetlarni Petrarka usulidagi va Shekspir usulidagi kabi turlarga bo`lishadi. Ulardan keyingi yashab o`tgan ijodkorlar ikkala yo`ldan birini tanlab, ma`qul yo`nalishda yozishda davom etishdi. Two sonnet forms provide the models from which all other sonnets are formed: the Petrarchan and the Shakespearean.²

Bu ikkala yo`nalishning farqi nimada?

Sonet janri Italiyada paydo bo`lgan. The sonnet is a type of poem finding its origins in Italy around 1235 AD. While the early sonneteers experimented with patterns, Francesco Petrarca (anglicised as Petrarch) was one of the first to significantly solidify sonnet structure. The Italian or Petrarchan sonnet consists of two parts; an octave and a sestet. The octave can be broken down into two quatrains; likewise, the sestet is made up of two tercets.³ Ushbu ma`lumotga qaraganda, Petrarka sonetning bizgacha yetib kelgan asl shakliga asos solgan. Uning sonetlari ikki qismdan tashkil topgan: oktava va sestet. Bu nomlar biz o`ylagandek boshqacha ma`no kasb etuvchi qo`rqinchli atama emas. lotincha nomlanishdan o`z tilimizga sakkizlik va oltilik deb tarjima qilsak bo`ladi. Biz aytayotgan katren va tersetlar ayni shu ikki katta qismning bo`laklaridir. Mazmun jihatdan birinchi katrenda mavzu aytiladi va ikkinchi katrenda fikr kengaytiriladi. Tersetlarning ilk qismi mavzuni sintez qiladi va oxirgisi xulosa beradi. Ana shu shakl va mazmun Petrarka yo`nalishiga tegishli va davom ettirib kelinmoqda.

Go`zal chehra! Maftunkor nigoh! a

Raso qadda eshilgan g`urur! b

Kibru shafqat omuxta surur – b

So`z va shuur soyabon, panoh! a

Birinchi katrenda sevgili yorning ne qadar go`zalligi ta`riflanmoqda. Katrenning uchinchi misrasida *kibr* va *shafqat* so`zlari vositasida keyingi katren ifodalaydigan fikrga ishora ham qilinadi. Shunday go`zallikning endi bu dunyoda yo`qligini hazm qilishga esa faqatgina so`z yordam beradi, ya`ni lirik qahramon shoirning kuchi bilan dardlarini to`ka oladi.

Nurli kulgich yo`q endi, zotan, g

Jilmayadi mangu uyquda, v

² www.poets.org

³ https://en.wikipedia.org/wiki/Petrarch%27s_and_Shakespeare



U fanoga borsin osuda, v
Saltanatlar tutsinlar motam. g
Ikkinchi katrenda ma'shuqaning o'limi bayon qilinadi va hijron tuyg'usini
o'quvchiga xabar qilish uchun zamin hozirlaydi.

Jon, qonimda edi har nafas, d
Oramizga tushdi judolik. c
Hatto ajal qilmoqda havas! d

Oshiq qonida oqqan muhabbati va jonida yashovchi ma'shuqasidan ayrilgan.
Dastlab bu judolikka chidashning yagona yo'li so'z deb ko'rsatilgan bo'lsa, oxirgi
tersetda endi oshiqni so'z ham ovutolmasligini his qilasiz. Tun asli qorong'i edi.
Hajr bu tunni yanada qaro qilmoqda. Bu qaro tunda, faqatgina, shamolga sovrilgan
ishq haqida kuylovchi sas humronlik qiladi. So'z taskin va yana shu tinchlikni
buzuvchi sifatidagi obrazga aylanib qolyapti. Ammo oshiqga dardini aytish uchun
ham, muqaddas ishqini esga solish uchun ham so'z qadrli:

So'zboz emas, kasbim – fidolik: c
Shamollarda sovrilgan so'z, sas – d
Hajr tuni oqqan qarolik.⁴ c

Ikkinchi yo'nalish esa ingliz tilida yaratilgan Shekspir yo'lidagi abab, cdcd, efef,
gg kabi qofyalanishga ega bo'lgan sonetlar edi. Bu sonetlar sisma jihatdan
o'zgarishga yuz tutganini ko'ramiz. Mazmun jihatdan esa rivojlanib kelayotgan uch
katren uchun so'nggi ikkilik qism bir xulosa yasab qo'yadi.

Petrarka va Shekspir sonetlarida asosiy mavzu ishq-muhabbat. Petrarka
sonetlarining paydo bo'lishining o'zi Lauraga bo'lgan sevgisi ta'sirida bo'lsa, asosiy
ijodiy metodi romantizm bo'lgan Shekspir bu kayfiyatdan chiqib ketishi mushkul
hodisa. Sonet janrini ishqiy lirika shakli sifatida butun dunyo ham tan olib bo'lgan.
Shekspir sonetlarining lirik qahramonlarini turk tarjimoni Talat Sahid Halman
quyidagicha tasnif qiladi:

- 1)1-sonetdan 126-sonetgacha bo'lganlari bir yosh aslzoda insonga atalgan.
- 2)127-sonetdan 152-sonetgacha bug'doyrang bir ayolga atalgan.
- 3)153 va 154-sonetlar yunon she'riyatidan olingan sarbast tarjima sonet deb faraz
qilishadi⁵.

⁴ www.ziyouz.com

⁵ Shakespeare. Tm soneler. Trkiye –1993. S. 31



Shekspir sonetlarining yambik pentameter o`lchovidagi urg`usiz bo`g`inlar o`rniga (.) va urg`uli bo`g`in belgisiga (–)ni qo`yib vazni aniqlashtirishimiz mumkin:

. – . – . – . – . – . – .

O`n bir yoki o`n bog`inli bu shakl o`zgarishi ham mumkin. Agar kerak bo`lsa, ikki yoki bir bog`in qo`shilish holatlari ham kuzatiladi. Ammo sonetning o`ziga xos ritmi bu bilan buzilib qolmaydi.

O`zbek adabiyotida har ikkala yo`nalishdagi sonetlar ham uchraydi. Usmon Nosir sonetlarida Petrarka usulini ko`rsak, Rauf Parfi sonetlarida Shekspir yo`nalshining ustunligini sezamiz. Sonet janri asl vazniy qoidasiga o`ra yambik pentametrda yozilishi kerak. Bu vazn antik davr adabiyotidan buyon saqlanib qolgan bo`lib, Yevropa adabiyoti uchun xosdir. Chunki unda urg`uli va urg`usiz bo`g`inlar katta ahamiyat kasb etadi. Aslida bu vazn yunon antik davr she`riyatida an`naviy tarzda mashhur bo`lgan bo`lsa-da, uning atamasi – Yambik pentametr XVI asrga kelib iste`molga kiritilgan. *Pentameter* originating from the French word *pentametre* became known since the sixteenth century to define “a verse line of five metrical feet.” Pentameter is one of the traditional types of meter used. Pentameter is historically found in French and Italian classic poetry and was first found used in English poetry thanks to Geoffrey Chaucer in the fourteenth century.⁶ Masalan, Shekspirning quyidagi sonetining katrenlar qismini olamiz:

That **time** of **year** thou **mayst** in **me** behold

When **yellow** **leaves**, or **none**, or **few**, do **hang**

Upon those **boughs** which **shake** against the **cold**,

Bare **ruined** **choirs**, where **late** the **sweet** birds **sang**.

In **me** thou **see`st** the **twilight** of such **day**

As **after** **sunset** **fadeth** in the **west**;

Which **by** and **by** black **night** doth **take** away,

Death's **second** **self**, that **seals** up **all** in **rest**...

Menda kuz faslini ko`ryapsan ayon,

Osilgan zar barglar titrar ayoqda

Bir-bir to`kilmoqda, bo`lmoqda xazon,

Xor⁷ qushlar ovozi siniq, shikasta.

Menda ko`rayapsan oqshom rangini,

G`arbda bo`zarganda botayotgan kun.

⁶<https://poets.org/glossary/iambic-pentameter>

⁷ Qo`shiqchilar jamoasi



Tun yoyganda zulmat paranjisini,
O`lim tin oladi bag`rida beun ⁸.

Bu, albatta, bizning tilimiz uchun xos emas. Chunki so`zlarning urg`ulari bizda ko`chib yuruvchi bo`lib, ko`pincha, oxirgi o`ringa tushadi. Urg`ulari bitta o`rinda qat`iy turuvchi bir bog`inli va aynan birinchi yoki ikkinchi bo`g`iniga tushuvchi so`zlardan esa she`r yozib bo`lmaydi, chunki bizda qat`iy urg`uga ega so`zlar ma`no anglatmaydigan yordamchi so`z turkumlari va qo`shimcha ma`no yuklashda ko`maklashuvchi modallardan iborat.

Unda o`zbek adabiyoti sonet janri kanonlaridan qaysilarini to`laligicha o`zlashtirib oldi va qaysilarini o`z tilimizga moslashtirdi? – degan savol paydo bo`ladi. Bu uchun biz Usmon Nosir hamda Rauf Parfi ijodidan misollar keltirish orqali javob va isbot topamiz.

Usmon Nosir sonet yozishni boshlab bergan ijodkor sifatida qaraladi. Shoirning “Yana she`rimga” sonetini kuzatamiz:

She`rim! Yana o`zing yaxshisan, a
Boqqa kirsang, gullar sharmanda. b
Bir men emas, hayot shaxsisan, a
Jonim kabi yashaysan manda. b
Yuragimning dardi — naqshisan, v
Qilolmayman seni hech kanda! g
O`t bo`lurmi ishqiy yo`q tanda? g
Dardimsanki, she`rim yaxshisan. v

Sen orada ko`prik bo`lding-da, c
Geyne bilan o`rtoq tutindim. d
Lermontovdan ko`mak o`tindim. d

Butun umrim sening bo`yningda. c
Saharda qon tupursam, mayli. e
Men — Majnunman, she`rim, sen — Layli⁹! e

Petrarka sonetlarida qofiya tizimida, asosan, ikki katren: a-b-b-a tarzida; keyingi tersetlar esa ikki xil qofiya shaklida keladi: c-d-c, d-c-d yoki c-d-e, d-c-e. Fransuz adabiyotida ham sonetning o`ziga xos qofiya tizimi mavjudligini ko`rish mumkin.

⁸ Sonet katreni maqola muallifi tarjimasida

⁹ Usmon Nosir. “Tanlangan asarlar”(2 jildlik, 1-jild) T. –1959. –B.48



“XX asr boshlarida "Qattiq shakl" tatar she'riyatiga allaqachon kirib keldi (G'.Rahim "Sonnet"), 30-yillar davomida shoirlar yanada murakkab shaklga – sonetlar gulchambariga diqqatini qaratdi. XX asr oxiri - XXI asr boshlarida bu janr yangitdan tug`ilishi R.Haris, Rob.Axmetzyanov asarlarida dunyoga keldi. Zamonaviy tatar shoirlari ushbu shaklga xos bo'lgan falsafiy tabiatni tatar xalqi uchun dolzarb bo'lgan masalalar bilan birlashtirdilar. R.Haris asarlarida fransuz (abba abba ccd eed) va ingliz (abab cdcd efef gg) qofiyalarda yozilgan sonetlarni uchratamiz.”¹⁰

Usmon Nosir yuqoridagi sonetida tersetlardagi qofiya shakli biroz o`zgarganiga guvoh bo`lamiz, ammo sonetning bu shakli Shekspir sonetlarida yaqqol ko`zga tashlanadi. Shekspirda o`n bir bo`g`inli sonetlar ko`p uchraydi. Aslida ham yambik pentametrga ko`ra, besh juft urg`uli va urg`usiz bo`ginlar soni o`nta yoki ortsa, o`n bir-o`n ikki tani tashkil qiladi. Faqat usmon Nosir sonetlarida bo`g`inlar soni to`qqizta. Bu shoirning uslubi bilan ham bog`liq, bizningcha. Usmon Nosirning “Dengizga” she’ri garchi nashrlarda sonet nomi bilan berilmasa-da, shakl jihatdan shu janrga teng:

O`ynagil so`ng marta, chayqal, erkalan! c
Armonim qolmasin ketar oldimda. d
Bag`ringda baliqday yuzgan oq yelkan c
Bir umr sayr etgay mening yodimda... d
Yaxshi qol, erkin suv! Yaxshi qol, dengiz! e
To`lqinlar, qo`ynimga qizday kirdingiz¹¹... e

Yuqoridagi bandlar sonetning so`nggi ikki terseti. Ammo bo`linishni Usmon Nosir Shekspir yo`nalishidan borib, uch katren va ikkilik qismga ajratgan. Sonet janrini mukammal o`rganib, o`zbek adabiyotiga olib kirgan shoirning Shekspir uslubida ham yozishga urinishi tabiiy hol. Shoir har ikki yo`nalishda ham o`zini sinab ko`rgan, bizningcha. Bu sonetda har misradagi bo`g`inlar soni ham o`n birtadan iborat.

O`zbek adabiyotida Barot Boyqobilovning ham bu janrda samarali qalam tebratganining guvohimiz. Hatto, shoirning “Sonetlar” nomli kitobi ham chop qilingan. “Muallif o`z sonetlar kitobida to`rt yuzi yigirma birta sonet keltirgan.”¹² Barot Boyqobilov ijodida ham ikki yo`nalishdagi sonetlarni uchratish mumkin.

¹⁰ Rabiyeva. M., Beknazarova D. “Sonet adabiyot janri sifatida” www.uniwork.buxdu.uz

¹¹ Usmon Nosir. “Tanlangan asarlar”(2 jildlik, 1-jild) T. –1959. –B.60

¹² Adabiy tur va janrlar. Lirik(Ikkinchi jild). Toshkent: “Fan”, 1992. –B.189



Muhabbat insonga qo‘shqanot,

Dunyoni ko‘rguvchi ko‘zidir,

Avlodlar topingan baxt, najot.

Insonning u aytar so‘zidir,

U bilan go‘zaldir bu hayot,

Muhabbat insonning o‘zidir!

Yuqoridagi keltirganimiz “Muhabbat chirog‘i yonmasa..” deb boshlanuvchi sonetning tersetlari. Qofiyalanish tizimiga ko‘ra, italyan sonetlari kabi. Quyidagi “Urgut chinoridan mening qalamim..” soneti esa uch katrendan so‘ngra ushbu ikki misra bilan tugaydi:

Tarjimai holim — Urgut qissasi,

She‘rim — urgutliklar oltin bo‘sasi.¹³

Taniqli shoir Aleksandr Faynberg ijodida ham sonetlarning o‘ziga xos shakli uchraydi. Shoirning o‘ttiz to‘qqiz she‘rdan iborat “Erkin sonetlar” kitobi ham mavjud. Birinchi tersetning o‘ziga xos qofiya tizimi bor:

ПЕНЕЛОПА

Послевоенка. Ветер гнет столбы. а

Гудит завод промозглым серым утром. б

Там снова мало черного мазута. б

Там снова много дыма из трубы. а

Идешь, не выделяясь из толпы, а

в поношенные туфельки обуви, б

прозрачная от голодухи лютой б

и местная по прихоти судьбы. а

Где парус твой, залетная гречанка? с

Но вдруг ресницы юной хулиганки с

махнули мне, как весла двух галер. д

Акцент не утаил ее веселья: г

- В общагу приходи ко мне, Гомер. д

По вечерам я вся без Одиссея.¹⁴ Г

¹³ www.kh-davron.uz

¹⁴ www.slovo.nx.uz/fainberg



Tersetdagi bunday ko`rinish ingliz adabiyotida ham uchraydi. Uilyam Vordsvord sonetlarida Petrarkaga mos vorislik mavjud:

Octave -

Milton! thou shouldst be living at this hour:	A
England hath need of thee: she is a fen	B
Of stagnant waters: altar, sword, and pen,	B
Fireside, the heroic wealth of hall and bower,	A
Have forfeited their ancient English dower	A
Of inward happiness. We are selfish men;	B
Oh! raise us up, return to us again;	B
And give us manners, virtue, freedom, power.	A

Sestet -

Thy soul was like a Star, and dwelt apart;	C
Thou hadst a voice whose sound was like the sea:	D
Pure as the naked heavens, majestic, free,	D
So didst thou travel on life's common way,	E
In cheerful godliness; and yet thy heart	C
The lowliest duties on herself did lay ¹⁵ .	E

O`zbek adabiyotida eng ko`p sonet yaratgan va sonetning mavzu olamini ham o`zgartirib yuborgan shoir –Rauf Parfi. Shoirda sonetlar turkumi anchagina. Rauf Parfi sonetlarida, asosan, Shekspir sonetlari shakli saqlanib qolgan, ammo, ularning mavzusi faqatgina muhabbat bilan cheklanib qolmaydi. Sonetlarda sevgi, erk, vatan kabi mavzular bilan birga ichki kechinmalari tasvirlangan shoir lirik obrazini ham uchratish mumkin. Go`zal lirik qurilishni ko`rib, qatlariga singdirilgan chuqur ma`nolar haqida o`ylar ekanmiz, har bir o`quvchi singari bizda ham savol tug`iladi. Rauf Parfi sonetlari shakliy jihatdan sonet qonunlariga to`g`ri keladimi?

Yuqorida bir nechta o`zbek adadiblari sonetlarini bekorga keltirib o`tmadik. O`zbek adabiyotiga o`zbek tili qoidalariga mos bo`lmagan sonetlar qanday holda kirib keldi? Qaysi shoirlar haqiqiy sonet shaklini saqlab qola oldi? degan savollarga qisman javob topdik. Xususan, Rauf Parfi ijodida sonetlar turkumi dastlabki yangi shakllardan hisoblanadi. Shuningdek, bu sonetlar shakli biroz erkinlashgan.

SENSIZ

¹⁵ https://en.wikipedia.org/wiki/Petrarchan_sonnet



1.Sovuq. Atrof temir. Qo'limni ochdim,
Yelkamda chatnadi qaynoq qo'rg'oshin...

Vayrona qa'ridan ko'klarga qochdim –

Arzonga oldilar Majnunning boshin.

Rahmsiz olomon, sizga ne kerak?

Angladim, jismimni ruhimni bog'lar.

Vahiy keldi menga, chirpandi yurak,

Aks-sado berdi muqaddas tog'lar.

“Sensiz” sonetlar turkumi uchta she'rdan iborat. Shoir tasvirlayotgan “Sensizlik” bu “iymonsizlik”, lirik qahramonning qalbidan Allohning yiroqlashishidir. Ammo bu tuyg'ular iskanjasida qolgan qahramonimiz o'z qalbi bilan murosasiz jang olib boradi. Sonet katrenlari a-b-a-b shaklidagi qofiyaga ega. Odatda, oktava qismida hech bir shoirda jiddiy shakliy o'garishni sezmaymiz. Ammo tersetlarni har kim o'z xohishiga ko'ra o'zgartirishni ma'qul topgan ko'rinadi.

Farog'at zirvasi. Olam — bilgisiz, s

Oxiri sen kelding. Xayolga tolding. d

Vodiy og'ushida so'zsiz, belgisiz, s

shoir “Olam –bilgisiz” deganda Yaratganni nazarda tutgani yaqqol ayon bo'ladi.

ikkinchi tersetda Allohga bo'lgan sevgisiz insonning yashay olmasligi xulosa tarzida o'quvchiga qoldiriladi, demak, lirik qahramon ham bu sevgisiz yashay olmaydi:

Asta odimlar-la ko'zdan yo'qolding. d

Faqat qayga ketding, qaylarda qolding, d

Oh, qanday yashayman sensiz — sevgisiz.¹⁶ S

Fayenberg va Rauf Parfi sonetlarida tersetlar Petrarka shaklini oladi, ammo qofiyalanishi erkin o'zgartirilgan.

Ko'rib turganimizdek, birinchi sonet tuzilishi italyan sonetlariga rioya qilgan. Mana shu bir turkumning ichida ikki xil sonet shakli mavjud. Birinchisi Petrarkaga xos bo'lsa, keyingilari uch katren va ikki misrali banddan iborat:

2.Sohilda bir o'zim. Dengiz qorong'u, a

Yelkansiz kemanding ichinda shubham. b

Vahima shiviri, bo'g'zimda og'u. a

Aqlim bir falokat sezadi mubham. b

Rangi o'chgan osmon xunuk g'uldirar,

Achchiq chirqillaydi noma'lum bir qush.

¹⁶Rauf Parfi. Sakina. –T.: “Muharrir”, 2013. –B.268



Va yonimda qonli buloq chuldirar,
Atirgullar, sening gullaring behush.

Birinchi sonetda Xudodan yiroqda yashay olmasligini tan olgan lirik qahramon hamon o`y surar ekan, ikkinchi sonetda “achchiq chirqillayotgan qush” –iymon haqida gapiradi. Shoir lirik qahramonning psixologik holatini oydin chizish bilan birga sonetlar orasidagi assotsiativ bog`liklikni ham go`zal obrazlar vositasida chizadi: ranggi o`chgan osmon, qonli buloq, behush gullar. Iymon inson tomirida oqib turgan jon kabi unga zarur. U hayotini anglab yetishda ham insonga yo`l ko`rsatuvchidir. Uchinchi katrenda sevgi timsoli ayol obrazida gavdalanadi.

Feruza, zumurrad gullaring payhon.
Oh, tushding kemadan. Karnay chaldilar,
Va ko`zga ko`rinmas qo`llar shu zamon
Ag`dardilar meni, kishan soldilar.

Faryodim ichimda, otma gulingni... e
Otma, yolg`izlikdan — baxtli qulingni. e

Ilohiy ishq bilan yolg`iz yashash lirik qahramonning masnadi. Lekin uni yo`ldan uruvchi, duoga ochilgan qo`llariga kishan soluvchi nafsbinliklar va xudbinliklar ham to`la. Ammo Ollohning chin bandasi uning baxtli qulidir. Mana shu qullik insonni turfa yovuzliklarga to`lgan dunyoda vijdonini asrab yashash uchun undaydi.

Uchinchi sonetda Alloh bilan birga bo`lgan “uyg`o`q ruh” tasviri beriladi:

3.So`ldirma gulingni, ilohim, yonsin,
Yer-u osmon ko`rsin ko`z yummay bedor.
Vaqt — ulug` hakam. Ruhing uyg`onsin,
Asriy umidim — Sen. Sen borsan. Sen — bor.

Roviylar ne uchun? Haq va Haqiqat!
Asirlik zanjirin parchalab tashla.
Vujudingni yoqsin alamli fikrat,
Ayon haqiqatga, haq yo`lga boshla.

Haq yo`l sari intilayotgan qahramon dastlabki katrenda Haqning borligini barchaga baralla ayta oladi, demak, u endi chinakam iymon sohibiga aylandi.

Fursat o`tmog`dadir. Vaqt bu — beomon,
Omonat dunyoda omonat odam —



Vijdon shevasi bor, mehrobi iymon –

Asl insonlarin chorlaydi bu dam.

Omonat dunyoda odamning o`tkinchiligi va asl inson bo`lish yo`li, faqatgina, “vijdon shevasi” dir. Shoir so`nggi ikki misrada lirik qahramonida har qanday illatlarga qarshi kurashish uchun parchalovchi kuch mavjudligini aytadi. Bu kuch, shuphasiz, inson va Alloh birligidir.

Falakka sanchilib qolgan so`zim bor, e

Olovlar, chamanlar ichra o`zim bor. e

Ikkinchi va uchinchi sonetlarda Shekspir yo`nalishini kuzatamiz. So`nggi ikki misralar e-e tarzida qofiyalangan. Aynan Shekspirning puantolariga o`xshash bor kuchni so`nggi ikki –distixda ifodalash. Rauf Parfining “Tavba” sonetlar turkumida ham inson va Alloh mavzusi aks etadi. Bu turkumning ham shakli ayni sonetlardagi kabidir. Demak, Rauf Parfi sonet shaklida har ikkala usuldan ham unumli foydalangan.

Rauf Parfining ijroviy lirikasi sonetlarda juda mukammal aks etadi. Uning ichki bo`hronlari mavjud lirik qahramon tuyg`ulari bilan omuxtalik hosil qilgan holda lirik kayfiyatni bunyodga keltiradi. “Siyovush” , “Abdurauf Fitrat”, “Hamlet”, “Abdulhamid Sulaymon Cho`lpon” sonetlari ham shu o`zandandir. Biz bu sonetlardagi muallif “men”i qanchalar aks etganligini avvalgi maqolamizda ta`kidlab o`tgan edik.¹⁷

Masalan, Shekspirning 130-soneti shunday qofiyalanadi: a-b-a-b, c-d-c-d, e-f-e-f, g-g¹⁸. bundan ko`rinib turibdiki, Rauf Parfi ham shu yo`nalishda yozgan.

Italyan sonet uslubini shoirning “Thakurning oxirgi she`ri” sonetlar turkumida qofiyalanishi biroz o`zgargan tartibida uchramiz. Tersetlar quyidagicha qofiyalangan:

Vizillar muzlarga burkangan ko`klam, d

Ochiq poyonlarning bayonsiz rangi. e

Sovuq qorong`uning oppoq sadosi. f

Bo`g`zimda bo`g`ilar musiqam, unim. g

Ajr saharidir hajr sahrosi. f

¹⁷ Imomova, Ruxsora. Rauf Parfi she`riyatida ijroviy lirika. “Adabiy Meros” jurnali 2023-yil, 3-son,124-130-betlar. www.kh-davron.uz da ham e`lon qilingan.

¹⁸ Sündüz Öztürk Kasar, Didem Tuna. Üç Dilde Shakespeare: Göstergibilimin İşığında 130. Sone ile Çevirilerini Okumak ve Çözümlemek// Article in International Journal of Languages Education- March 2018. www.researchgate.net



Al-vido kunimdir, tug`ilgan kunim¹⁹. g

Yuqoridagi sonetda qofiya tizmi shunday: a-b-a-b, d-c-d-e, d-e-f, g-f-g.

Bundan ham boshqacharoq variant ham mavjud. Rauf Parfining “Ko`zimda g`ildirar xo`rlangan xilqat” sonetida ham ikkinchi katren misralarining qofiyalanishi birinchi tersetda “Thakurning oxirgi she`ri”dagidan ham farq qiladi. Ikkinchi katren va birinchi tersetni keltirib o`tamiz:

Jadval 1: Rauf Parfi sonetining qofiya tuzilishi

Sonet misralari	Qofiya tizimi
Ko`zimda g`ildirar xo`rlangan xilqat	A
Iymon asirlari kechar ko`zimdan	B
Nafasim bo`g`zimga tiqildi faqat	A
Qanoat topmadim topgan so`zimdan.	B
Avval Kalom edi, qayda u Quadrat?	A
Qayda haqiqatning xaloskor qo`li?	C
Tokay osmon kabi turgaydir mudrab?	D
Arosat yo`limi shoirning yo`li?	C
Iymon asirlari bir karvon bo`lib?	C
Qayon yo`rtmaktadir g`ul, zanjir sudrab	D
Aldanish sahrosi, pushaymon cho`li,	C
Fano vodiysida bosriqqa suvrat,	A
Zo`rlangan jonlarning chuvalgan siri.	E
Mening-da kitobim –iymon asiri ²⁰ .	E

Shakliy jihatdan bu sonet Petrarka usulida yozilgan. Ammo qofiyalanishi farqli. Rauf Parfi sonetlarida har bir qismda lirik kompozitsiya ham farq qiladi. Birinchi va uchinchi bandlarda iymon asirlari eslanadi, moziyga murojaat qilinadi. Kitob esa haqiqatning badiiy shakli. Haqiqatga barcha zamonlarda g`ul kiydiriladi. Ushbu sonetda xulosa qism so`nggi tersetning eng so`nggi misrasiga yuklangan:

Mening-da kitobim iymon asiri.

Ingliz adabiyotida Shekspir uslubidan boshqa yana bir yo`nalish mavjud: Edmund Spenser sonetlari. Bu sonetlarda qofiya tuzilishi Rauf Parfining yuqoridagi soneti

¹⁹ Rauf Parfi. Turkiston Ruhi. Toshkent: “Sharq”, 2013. –B.266

²⁰ Shu manba, B.268



kabi murakkab. Banddan tashqari qofiya qo'llash holatini kuzatamiz: A Spenserian sonnet comprises three interlocked quatrains and a final couplet, with the rhyme scheme ABAB BCBC CDCD EE.²¹ Sonetning poetik xususiyatlaridan biri ham aynan qofiyaning bandlararo davomiyligida ko`rinadi. Ivan Buninda ham xuddi shunday bandlararo bog`langan qofiyaga ega sonetlarni uchratamiz:

Spenser XVI asrda Shekspirdan keyin sonet janrini rivojlantirgan shoir edi. Adabiyotshunoslar Mishel va Spillerlar ingliz sonet shakllarini o`rganar ekan, Italiyada ilk paydo bo`lgan sonetlardan tortib, Uat, Sidney, Shekspir, Spenser, Dante, Milongacha tahlilga tortadi va bu ijodkorlarda sonet janri rivojini tekshiradi. Har bir ijodkor o`ziga xos tarzda xohlagan sonet shaklini ixtiro qilganligini ta`kidlaydi.²²

Rauf Parfi o`zbek adabiyotida sonet janrini ham kompozitsion qurilish jihatdan, ham qofiyalanishiga ko`ra yangilay olgan.

O`zbek adabiyotiga sonetning qofiya va o`n bir bo`g`inga ega o`n to`rt qator shaklidan boshqa xususiyatini singdirib bo`lmaydi. Qofiyalanishdagi erkinlik sonet janrining qadimgi na`munalari qoidalariga rioya qilmaslikday ko`rinishi tabiiy. Chunki sonet janri paydo bo`lgan vaqtdayoq "yopiq shakl" ya`ni o`zgarmas jinsda dunyoga kelgan edi. Ammo keying paydo bo`lgan shakllar ham yuqorida kuzatganimiz kabi o`z manbalariga ega. Har qanday narsa davr o`tavgani sari rivojlanadi yoki yo`q bo`lib ketadi. Sonet shaklining bu holatda o`zbek adabiyotida iz qoldirishi ham janrlar transformasining bir ko`rinishi, xolos. Rauf Parfi yozgan sonetlarning shakliy o`zgarishli, ammo go`zal na`munalarida shoir iste`dodini biz yangidan kashf qilamiz. Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, sonet janri ham transformatsion shakl hosil qilib ulgurgan qadimiy shakllardan biridir. Rauf Parfi esa bu shaklni yanada yangilagan o`zbek shoiri.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Rauf Parfi. Sakina. –T.: "Muharrir", 2013.
2. Rauf Parfi. Turkiston Ruhi. Toshkent: "Sharq", 2013.
3. Usmon Nosir. "Tanlangan asarlar"(2 jildlik, 1-jild) Toshkent –1959.
4. Adabiy tur va janrlar. Lirik (Ikkinchi jild). Toshkent: "Fan", 1992.
6. Shakespeare. Tm soneler. Trkiye –1993. S. 31

²¹ www.wikipedia.org. Spenserian sonnet

²² Spiller, Michael R. G. The Development of the Sonnet: An Introduction. London: Routledge, 1992. Web. 5 Dec. 2013.



7.Spiller, Michael R. G. The Development of the Sonnet: An Introduction. London: Routledge, 1992. Web. 5 Dec. 2013.

8.Rabiyeva. M., Beknazarova D. “Sonet adabiyot janri sifatida” www.uniwork.buxdu.uz

9.Abdulla Sher. Sonet sirlari.//”O`zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi. 2009-yil, 43-son

10.Nosirov, Q., Jamoliddinov, M. Shekspir sonet yozmaganmi?. 2010-yil, 21-son

11. Imomova, Ruxsora. Rauf Parfi she’riyatida ijroviy lirika. “Adabiy Meros” jurnali 2023-yil, 3-son,124-130-betlar.

12.Sündüz Öztürk Kasar, Didem Tuna. Üç Dilde Shakespeare: Göstergibilimin Işığında

130. Sone ile Çevirilerini Okumak ve Çözümlmek// Article in International Journal of Languages Education· March 2018. www.researchgate.net

13.www.poets.org

14.https://en.wikipedia.org/wiki/Petrarch%27s_and_Shakespeare

15.www.slovo.nx.uz/fainberg

16.www.ziyouz.com

17.<https://poets.org/glossary/iambic-pentameter>

18. www.wikipedia.org. Spenserian sonnet

19. https://en.wikipedia.org/wiki/Petrarchan_sonnet.

